

**MILLIY MAFKURANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK
ASOSLARI**

Xudoyorova Sadoqat Mo'minovna

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti

2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqola mafkura nima, u qanday g'oyalar asosida shakllanadi va qay tarzda jamiyatni harakatga qilishi, yoshlarda mafkuraviy immunitetni milliy tiklanish asoslari hamda istiqlol g'oyasi jamiyatimiz taraqqiyotining mafkuraviy shakllarini yoritib berilgan. Nega ayrim mafkuralar ba'zi millatlarning, yuksalishiga sabab bo'lsa, ayrimlari butun-butun xalqlarni ta'minlash va tanazzulga duchor etadi «Mafkuraviy immunitet» bo'yicha mashg'ulotimiz aynan shu va shu kabi masalalar talqiniga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Milliy istiqlol g'oyasi, mafkura, psixofiziolog, mafkuraviy immunitet, individuallik, iyerarxik tizim, kontetn tahlil, korrelyasion tahlil, ideologiya.

Аннотация. Данная статья освещает, что такое идеология, на основе каких идей она формируется и каким образом движет обществом, основы национального возрождения идеологического иммунитета у молодежи, а также идеологические формы развития общества идеи независимости. Почему одни идеологии вызывают подъем одних наций, а другие-деградацию и деградацию целых народов именно этой и подобной трактовке вопросов посвящен наш тренинг по «идее национальной независимости».

Ключевые слова: идея национальной независимости, идеология, психофизиолог, идеологический иммунитет, индивидуальность, иерархическая система, контекстный анализ, корреляционный анализ, идеология.

***Annotation.** This article covers what is ideology, what ideas it is formed and in what way it moves society, the basics of national revival of ideological immunity in young people and the ideological forms of development of our society. Why some ideologies cause the rise of some nations, some of them to provide and decline entire nations our training on the "idea of national independence" is dedicated to the interpretation of these and similar issues.*

***Key words:** idea of national independence, ideology, psychophysicologist, ideological immunity, individuality, hierarchical system, content analysis, correlation analysis, ideology.*

Kirish. Mafkuraviy immunitet tizimining, asosiy va birinchi elementi bu bilim. Ammo, bilimlarning turi ko'p. Buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasi tarafdorlari ham muayyan - bilimlarga tayanadilar, albatta. Shunday ekan, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob'ektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyitishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Ular, o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, Vatan va millat manfaatlari b-n uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak. Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi asosiy elementi ana shunday ilg'or bilimlar zamirida shakllanadigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Zero, bilimlar qanchalik ob'ektiv va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va zararli g'oyalar yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi. Ammo bilimlar va qadriyatlar tizimi mavjudligining o'zi mafkuraviy immunitetning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi. Zero, bu ikki element mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim elementi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy sohalaridagi maqsadlar tizimi b-n bog'liq. Ana shunday aniq maqsadlar tizimi bo'lmas ekan, inson, millat yoki jamiyat goh oshkora, goh pinhona mafkuraviy tazyiqlarga duchor bo'laveradi.

Hozirgi davrda inson hayotida axborot va bilimlar xilma-xilligining o'ri va ahamiyati yanada oshgan. Bilimlar mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi unsuri hisoblanadi. Ammo bilimlar ko'p. Diniy ekstremizm va terrorizm tarafdorlari ham muayyan "bilim" larga tayanadilar va uni omma ongiga singdirishga harakat qiladilar. Demak, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob'ektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim.

Bugungi kunda, axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm va egotsentrizm, mutaassiblik va aqidaparastlik g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning milliy va diniy an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan tahdidlar tobora xatarli tus olib, butun jahonda tarqalib borishiga qarshi kurashish hayotiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Shu jihatdan bilimlar va qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning shakllanishida asosiy omil bo'lib qolaveradi.

Mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim unsuri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalardagi mo'ljal va maqsadlar tizimi bilan bog'liq. Ana shunday tizim bo'lmas ekan, xoh alohida inson, xoh millat yoki jamiyat bo'lsin, goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga bardosh berishi amrimaholdir.

Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda yot g'oyalar kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladigan mafkuraviy profilaktikaning o'ri katta. U ijtimoiy institutlar tomonidan xilma-xil shakllarda amalga oshiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy ishlar majmuini, to'g'ri tashkil etilgan tarbiya tizimini qamrab oladi.

Bolaga ilk yoshidan boshlab nima yaxshi, nima yomon, ularga qanday munosabat bildirish kerak, degan savollarga asoslangan bog'cha, maktab tarbiyasi, undan keyin ijtimoiy tarbiya yo'lga qo'yilsagina har bir millat sog'lom, ishonchli, mustahkam immunitetga ega bo'ladi. Demak, mafkuraviy immunitet –

davlat va millatning ma'naviy birligi, ma'naviy sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi.

Jamiyatning o'z ertasi va kelajagiga ishonchi o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Buning zamirida millat baxt-saodati yo'lida, demak har bir fuqaro manfaatidan kelib chiquvchi maxsus faoliyat – mafkuraviy tarbiya yotadi. Mafkuraviy tortishuvlardagi g'oyani ommalashtirish uslublari – mafkuraviy tarbiya uslublari. Bu bahsda pirovard natijani ilmga asoslangan targ'ibot va tashviqot hal qiladi. Shu tariqa mafkuralar kurashi – g'oyalar targ'iboti va tashviqoti tortishuviga aylanadi. Jamiyatga yot mafkuralar o'z g'oyalarini birdaniga olib kira olmaydi. Ular avvalo mahv qilinishi kerak bo'lgan millat azaldan ishonib kelgan qadriyatlarga ishonchini, umidini so'ndiradi. Buning uchun millat ishonib kelgan qadriyatlar yomonlanadi, obro'sizlantiriladi. Natijada mafkuraviy immunitetni sindirishning birinchi bosqichi amalga oshadi – millat o'zi ishonib kelgan g'oyalar, qadriyatlarga befarq munosabatda bo'la boshlaydi. Bo'shliq ana shunday yaratiladi, “ochib olinadi”.

Mafkuraviy bo'shliq hosil bo'lgach, endi uning o'rnini to'ldiruvchi yot g'oyalar jozibali tasvirlana boshlanadi. Buzg'unchi g'oyaga xos “yangilik” va u berayotgan va'dalar odamlar qulog'i va ko'zi orqali ong va qalbiga kira boshlaydi. Mafkuraviy bo'shliq shu tariqa to'ldirila boshlanadi. Yolg'on g'oya odamlar ongiga o'rnashsa, u ham amaliy kuchga aylanadi.

Hozirgi fan va texnologiyalar ravnaqi davrida boshqa kishilarning ongi va qalbiga yashirin, g'araz maqsad bilan ta'sir ko'rsatishni ifodalashda manipulyatsiya keng ishlatilmoqda. Ushbu vaziyatda shaxs va uning mafkuraviy immunitetiga ta'sir ko'rsatish jarayoni manipulyatsiya tushunchasida aks etadi.

Bunda birinchidan, “da'vatchi”ning ta'siri shaxsga nisbatan zo'rlik va kuch ishlatmasdan, balki ma'naviy, psixologik xususiyatga ega bo'ladi; ikkinchidan, bu ta'sirda asl maqsad yashirin qoladi. Shuning uchun ham “islom dini niqobida” degan ibora ishlatiladi; uchinchidan, g'oyaviy manipulyatsiya, zimdan ta'sir ko'rsatuvchidan mahorat va bilimni talab qiladi. Shunday ekan, g'oyaviy manipulyatsiyani mafkuraviy kurash, yot mafkuralar tomonidan qo'llanilayotgan

ta'sir texnologiyasining tarkibiy qismi, deb atash mumkin. Ya'ni manipulyatsiya odamni u yoki bu ishni qilishga emas, (targ'ibot va tashviqotdan farqli o'laroq), balki shu ishni qilishga xohish, istak uyg'otishga xizmat qiladi.

Shaxsning g'oyaviy ta'sirga beriluvchanligi, avvalambor, unda g'oyaviy bo'shliqning mavjudligidan dalolat beradi.

1. Ijtimoiy-siyosiy omillar. Bu omillarning xususiyati jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bilan belgilanadi. Bu guruh omillarini belgilovchi manbaalarni o'z navbatida, yana ikki toifaga ajratish mumkin. Birinchi toifaga siyo-siy va iqtisodiy sabablar kiradi va ular ma'naviy jabha shakllanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Masalan, jamiyatning iqtisodiy va siyosiyjihatdan yangilanish davri madaniy qadriyatlarga ta'sir etmasdan qolmaydi. Ikkinchi toifaga esa jamiyatda ijobiy mazmundagi ijtimoiy va madaniy an'analarning mavjudligi va ularni rivojlantirishga alohida e'tibor, amalda ijtimoiy adolat tamoyillarining hukm surishini ta'minlash kabilarni kiritish mumkin. Birinchi toifa omillarni boshqarish ancha mushkul bo'lib, ular ma'naviy qadriyatlar rivojlanishi uchun shart-sharoit sifatida mavjud bo'ladi. Iqtisodiy, siyosiy sohalarda istiqbolli kelajakka ishonch ma'naviy barkamollikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir etadi. Iqtisodiy omillar qadriyatlarni saqlab qolishga salbiy ta'sir ko'rsatgan davrda esa ijtimoiy-madaniy sohani faollashtirish zarur. Bunday faollik an'analarni yanada rivojlantirishda, qadriyatlar va hayot tarzini targ'ib etishda, tarbiyaviy ishlarni kuchaytirishda namoyon bo'ladi.

2. Ijtimoiy-psixologik omillar. Inson bevosita muloqotda bo'ladigan ijtimoiy guruhlar, shaxslararo munosabatlar, shaxs yashayotgan oilaviy muhit, shaxsning rasmiy (tashkilot, muassasa) hamda norasmiy (do'stlar, yaqinlari) tarzda ijro etadigan rollari, oiladagi o'z mavqei-dan qoniqishi, shaxs yashaydigan oilaning boshqa oilalar, guruh va jamoalar bilan aloqasi kabilar ushbu guruh omillarini tashkil etadi.

3. Psixologik omillar. Shaxs sifatida iqtisodiy, shaxslararo, oilaviy va shu kabi muammolarni mustaqil tarzda hal eta olish, o'z-o'zini anglash va nazorat

etishning rivojlanganligi, zo'riqishlarga chidamlilik, o'zgaruvchan sharoitga tez moslasha olish va muammoli vaziyatlarda tez yechim topa olish qobiliyati, ichki nizo va ziddiyatlarga moyillikning sustligi, motivatsiya va ehtiyojlar tizimining shakl-langanligi kabi ko'rsatkichlar inson ma'naviy yetukligi shakllanishini ta'minlovchi psixologik omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аъзамхўжаева Э.А. Муомала маромининг ёш хусусиятлари ва динамикаси: Дис. ... психология фанлари номзоди. – Тошкент, 2002.- 160 б.
2. Баранов А. По пути соединяющему людей// Самаркандский вестник. – Самарканд, 1995.- 12 август.- С.2.
3. Барначук Л.Ф. Психодиагностика: Учебник для вузов.2-е изд. – СПб.: Питер, 2009. – 384 с. Hunston, S. (2002). Corpora in applied linguistics. Oxford: Oxford University Press
4. Johns, T. (1991). Should you be persuaded: Two samples of data-driven learning materials? English Language Research Journal, 4, 1-16.
5. “Innovations in learning technologies for English language teaching”/ Edited by Gary Motteram (2013), P.197.